



UDK: 902. 6(575.151)

Dilobar NAZAROVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dilobarnazarova17@gmail.com

Termiz davlat universiteti dotsenti PhD O.Xamidov taqrizi asosida

UZBEKISTAN – CZECH REPUBLIC INTERNATIONAL ARCHAEOLOGICAL EXPEDITION STUDY OF BRONZE AGE MONUMENTS

Annotation

In recent years, the Uzbekistan–Czech Republic International Archaeological Expedition has carried out important scientific research on Bronze Age monuments in Surxondaryo region, particularly in the Sherobod oasis. Conducted over the period 2002–2022, these studies made it possible to identify the main phases of Bronze Age culture in the area and to shed light, on a scientific basis, on ancient settlements and their levels of development. Excavations at sites such as the Poshkurt-Zarabog' oasis yielded significant information about Bronze Age architectural structures, economic activities, social relations, and material culture. The research demonstrates the high effectiveness of international scientific cooperation in identifying, mapping, studying stratigraphy, and periodizing Bronze Age monuments. This article is devoted to the importance of Bronze Age monuments, their locations, and the contribution of the international expedition to their study.

Key words: Bobolanga, Tulkitepa, Yoltapa, Zarabog

УЗБЕКИСТАН – ЧЕХИЯ МЕЖДУНАРОДНАЯ АРХЕОЛОГИЧЕСКАЯ ЭКСПЕДИЦИЯ ИЗУЧЕНИЕ ПАМЯТНИКОВ БРОНЗОВОГО ВЕКА

Аннотация

В последние годы узбекско-чешская международная археологическая экспедиция проводит в Сурхандарьинской области, в частности в Шерободском оазисе, важные научные исследования памятников бронзового века. Исследования, проводившиеся в 2002–2022 гг., позволили установить основные этапы развития бронзовой культуры региона, научно осветить древние поселения и уровень их развития. В частности, раскопки на памятниках, таких как Пошхурт—Зарабаг и других, дали ценные сведения о архитектурных сооружениях, хозяйственной жизни, социальных отношениях и материальной культуре бронзового века. Работа экспедиции демонстрирует высокую эффективность международного научного сотрудничества в выявлении, картографировании, стратиграфическом изучении и хронологической классификации памятников бронзового века. Настоящая статья посвящена значению бронзовековых памятников, их локализации и вкладу международной экспедиции в их исследование.

Ключевые слова: Боболангар, Тулкитепа, Ёлтепа, Зарабаг, Корабаг

O'ZBEKISTON – CHEXIYA XALQARO ARXEOLOGIK EKSPEDITSIYASINING BRONZA DAVRI YODGORLIKLARINI O'RGANISHI

Annotatsiya

So'nggi yillarda O'zbekiston–Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi Surxondaryo viloyatida, xususan Sherobod vohasida bronza davri yodgorliklarini o'rganishda muhim ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirmoqda. 2002–2022 yillar davomida olib borilgan bu tadqiqotlar mintaqadagi bronza davri madaniyatining asosiy bosqichlarini aniqlash, qadimiy aholi punktlari va ularning taraqqiyot darajasini ilmiy asosda yoritish imkonini berdi. Jumladan, Poshxurt-Zarabog' vohasi kabi yodgorliklarda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida bronza davrining me'moriy tuzilmalari, xo'jalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari va madaniyati haqida muhim ma'lumotlar olindi. Tadqiqotlar bronza davriga oid yodgorliklarni aniqlash, xaritalashtirish, qatlamlarini o'rganish va ularni davriy tasniflashda xalqaro ilmiy hamkorlikning yuksak samaradorligini ko'rsatadi. Ushbu maqola aynan bronza davri yodgorliklarining ahamiyati, ularning joylashuvi va ularni o'rganishdagi xalqaro ekspeditsiyaning hissasini yoritishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Bobolanga, Tulkitepa, Yo'ltepa, Zarabog', Qorabog'.

Kirish. Eng qadimgi davrlardan boshlab O'zbekiston Markaziy Osiyoning muhim sivilizatsiyaviy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Xususan, Surxondaryo viloyati o'zining qulay geografik joylashuvi, iqlimiy sharoiti, tabiiy boyliklari va qadimiy madaniy qatlamlari bilan tarixiy-arxeologik tadqiqotlar uchun noyob mintqa hisoblanadi. Aynan shu hududda joylashgan SHerobod vohasi, qadimda Baqtriya va boshqa sivilizatsiyalar bilan chambarchas aloqador bo'lgan markazlardan biri sifatida ilm-fanga ma'lum. Bu yerda neolit, eneolit, bronza va temir davrlariga oid ko'plab arxeologik yodgorliklar topilgan bo'lib, ular insoniyat tafakkur taraqqiyoti, mehnat qurollarining takomillashuvi, xo'jalik yuritish tizimlarining shakllanishi hamda ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi kabi muhim jarayonlarni

o'rganishda asosiy manba vazifasini bajaradi. So'nggi yillarda mazkur 2002 - yildan buyon O'zbekiston va Chexiya Respublikasi o'rtasidagi hamkorlik asosida tashkil etilgan xalqaro arxeologik ekspeditsiya Surxon vohasining turli hududlarida izchil va ilmiy asoslangan arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ushbu hamkorlik Chexiyaning eng nufuzli ilmiy markazlaridan biri – Pragadagi Karlova universiteti bilan tuzilgan shartnomaga asoslanadi. XIV-asrda tashkil topgan Karlova universiteti Yevropaning eng qadimiy oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lib, arxeologiya sohasida chuqur ilmiy tajribaga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 2008–2011 yillarda O'zbekiston–Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi Surhon (SHerobod) vohasida olib borgan tadqiqotlar bronza

davri yodgorliklarini aniqlash va o'rganishda muhim natijalar berdi. Ushbu natijalar L. Stancho va P. Tushlova tomonidan tayyorlangan "SHerobod Oasis" kitobida hamda Chexiyaning Studio Hercynia jurnalida e'lon qilingan maqolalarda batafsil tasvirlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Ekspeditsiyaning dastlabki bosqichlarida SHerobod tumanidagi Jondavlattepa yodgorligida olib borilgan qazish ishlari bronza davri aholisi yashagan manzillar, ularning xo'jalik faoliyati va turmush tarziga doir muhim dalillarni ochib berdi. Keyinchalik olib borilgan keng ko'lamli arxeologik xaritalash, Poshxurt-Zarabog' vohasidagi qidiruv ishlari, Haitobodtepa yodgorligidagi tadqiqotlar orqali bronza davriga oid madaniy qatlamlar aniqlanib, ilmiy jihatdan tizimli ravishda o'rganildi. Ayniqsa, topilgan kulolchilik buyumlari, uy-joy qoldiqlari, suyaklar, metall qurollar va bezaklar orqali bu davrda yashagan aholining iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasini aniqlash mumkin bo'ldi.

2002-2022-yillardagi O'zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining Surxon vohasida olib borgan tadqiqotlarini tahlil qilish davomida ularni bevosita 5 ta katta guruhga bo'lish mumkin: 1. (2017-2019-yillar). 4. Poshxurt-Zarabog' vohasida olib borilgan SHerobod tumanidagi Jondavlattepa yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar (2002-2006-yy.). 2. SHerobod vohasi arxeologik xaritasini yaratish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar (2008-2011-yillar). 3. Makedoniyalik Aleksandrning Shimoliy Baqtriyadagi qal'a va mudofaa istehkomlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar arxeologik qidiruv tadqiqotlari (2014-2018-yillar). 5. Haitobodtepa va uning atrofida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar. Bu yillar davomida O'zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi Surxon vohasida joylashgan bronza davri arxeologik yodgorliklarini o'rganish va aniqlash borasida ham salmoqli ishlarni amalga oshirishda o'z hissasini qo'shdi.

2020-yilgacha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida Surxon vohasida bronza davriga oid jami 45 ta yaqin arxeologik yodgorliklar ro'yhati shakllantirildi [1]. 2015 - yildan so'ng, Termiz davlat universiteti va Chexiyaning Praga universitetining O'zbekiston – Chexiya tadqiqot loyihasi asosida mintaqada yanada tizimli ravishda o'rganib chiqildi. Tadqiqotlar Poshxurt tekisligining shimoliy qismida mil. avv. II ming yillikda aholi zich yashaganligini ko'rsatadi. Pashxurt hududida 20 dan ortiq va uning shimoliy qismida joylashgan Qorabog', Zarabog', Maydon qishloqlarida esa 10 ga yaqin Sopolli madaniyati yodgorliklari aniqlandi [2]. O'zbekiston – Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Poshxurt-Zarabog' botig'ida Sopolli madaniyatiga oid yangi 3 ta arxeologik yodgorliklarda arxeologik tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu arxeologik yodgorliklar buloq bo'ylarida joylashgan, bronza davri yodgorliklarini mahalliy xalq ziyoratgoh sifatida bilganligi uchun Bobolangar, Tulkitepa, Yo'ltepa kabi nomlar bilan atalib kelingan. Tadqiqotlar davomida asosiy e'tbor qaratilgan Sopolli madaniyatiga oid Bobolangar (37°45'43.45"N, 66°44'25.40"E) (so'ngi bronza) yodgorligi hisoblanadi. Sopolli madaniyatiga oid Bobolangar yodgorligi Zarabog' qishlog'ining g'arbida, Machayli daryosi o'ng sohilidan 120 m uzoqlikda, tabiiy tepalik ustida joylashgan. Yodgorlik dengiz sathidan 998 m, Machayli daryosi sathidan esa 15 m balandlikda bunyod bo'lgan. Tepalik yuzasida aylana va to'g'ri to'rtburchak shaklidagi tosh qurilmalar ko'zga tashlanadi [1]. Bobolangar 2016-yil Ko'hitang vohalarida olib borilgan dala tadqiqotlari davomida aniqlangan [3]. Tadqiqotlar davomida bu hududdan jami 136 ta sopol parchalari topilgan bo'lib, bular orasida so'ngi

bronza, ilk temir, ahamoniylar davri, ilk o'rta asrlar davriga oid topilmalar aniqlandi. O'rganishlar natijasida bu arxeologik joyni qabriston vazifasini o'tagan deb tahmin qilindi [4]. A. Avgustinova va J. Kišela tomonidan qisman qazilgan Bobolangarning topilishi, ushbu hududda batafsil tadqiqotlar o'tkazishga turtki bo'ldi [5]. Olib borilgan arxeologik qazish ishlari Y. Kyšela, A. Avgustinova (Charlez universiteti) tomonidan olib borilgan va hujjatlashtirilgan. Bobolangar (03) xandaqidagi topilgan skelet qoldiqlari bioarxeologik L.Kinaston (Ottogo universiteti, Yangi Zelandiya) tomonidan qazilgan va o'rganilgan. T.Votroubekova tomonidan fotogrammetriya bilan hujjatlashtirilgan. Asosiy topografik rejarlar, geodezik o'lchovlar A.Avgustinova, P. Sejnárova (Charlz universiteti) tomonidan amalga oshirildi va keyinchalik A.Avgustinova tomonidan qayta ishlandi. Topilgan arxeologik topilmalar asosan Sh. Shaydullayev tomonidan tahlil qilingan. Bobolangarda 2016-2017 yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida jami 350 ta sopol parchalari (shulardan 81 tasi diagnostik o'rganilgan) to'plangan bo'lib, bular orasida so'ngi bronza (Sopolli madaniyati), ilk temir davri (Yaz I), Axamoniylar davri, yuqori o'rta asrlar (11-12 asrlar) davrlariga oid topilmalar ham aniqlangan [3]. Bobolangar 01,02,03 xandaqlarida olib borilgan izlanishlar natijasida yodgorlikning davriy sanasi so'ngi bronza ekanligi ilmiy tahlillar bilan asoslandi. Shuni alohida qayd etish joizki, yodgorlik XVI asrda qabristonga aylantirilgan va bronza davri madaniy qatlamlariga juda katta talafot yetkazilgan [4].

2016-yilda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning eng muhim kashfiyotlaridan biri Kaptar Kamar g'ori (so'ngi bronza, ilk temir) hisoblanadi. Bu ulkan qoya boshpanasi 2016-yil 4-sentabrda L.Stancho tomonidan G'urjak-G'arbiy qo'rg'on qabristonini o'rganish davrida topilgan. 2016-yil 6-sentabrda izlanuvchilar tomonidan batafsil o'rganib chiqilgan. G'orning o'zi Xo'jaikon qishlog'idan janubi-g'arbdagi to'g'ri chiziq bo'ylab 1,15 km uzoqlikda, kordinatalari 37.886213°N 66.768001°D bo'lgan nuqtada joylashgan. Kaptar Kamar g'orini o'rganish jarayonida turli hil metodlardan ham foydalanildi. Xususan Tomas Smely tomonidan metall detektor tadqiqoti o'tkazildi. Natijada metall buyumlar va o'rta asrlarga oid 2 ta mis tangalar (Horun ar – Rashid (786-809), Muizz-ad-Din Muhammad (1173-1203) topildi. Bundan tashqari uzunligi 12,5 sm va kengligi 3,2 sm bo'lgan temir o'q uchi, uzunligi 17 sm va kengligi 0,5 sm bo'lgan temir igna kabi tarixiy artefaktlar topildi.

Qiziqarli tomoni Kaptar Kamar g'oridan unchalik uzoq bo'lmagan hududda 4,7 km janubi-g'arbiy tomonidan Zaraut-Soy darasi va 55 km shimoli – sharqda Teshik Tosh arxeologik yodgorliklarini joylashganligi hududning tarixiy mavqeini yanada oshirishga hismat qiladi. Chexiyalik g'orshunos va paleolitshunos olimlarning fikriga qaraganda Kaptarkamar g'ori ohaktosh yotqizig'idan iborat bo'lgan, suv tegishi oqibatida ohaktosh erib, uzunligi 30,5 m, balandligi 25,3 m, kengligi 29,5 metrlik tabiiy g'or paydo bo'lgan. Kaptarkamar g'orida olib borilgan tadqiqotlar davomida aniqlangan Kuchuk I sopollari asosida ushbu g'orning shu davrda mavjudligi aniqlandi.

Aniqlangan hududlardan yana biri Tulkitepa yodgorligi bo'lib, Tulkitepa ham Machayli darsining o'ng tomonida, Bobolangar yodgorligidan 1,5 km janubi-sharqda, E37.751284/N66.749381 geografik kenglikda, dengiz sathidan 924 m balandlikda joylashgan. Yodgorlikning ko'lami 160x150 m tashkil etib, maydoni 22500 m. Yodgorlik yuzasida yuzlab Sopolli madaniyatining Jarqo'ton davriga oid sopollari topildi [1]. Yodgorlikda kulolchilik buyumlari yaxshi saqlanib qolgan bo'lib, 16 ta sopol buyumlar qoldiqlarining 5 tasi so'nggi bronza davriga tegishli ekanligi aniqlandi. 2017-yilda aniqlangan, Sopolli madaniyatiga oid arxeologik yodgorliklardan yana biri, Yo'ltepa arxeologik yodgorligi

hisoblanadi. U Maydon qishlog'idan oqib o'tadigan Loyliqsoyning chap o'zanida, tabiiy buloq bo'yida, dengiz sathidan 570 m balandlikda joylashgan. Yodgorlik tabiiy tepalik ustida shakllangan bo'lib, cho'zinchoq shaklda, sharqdan g'arb yo'nalishda 230 m, janubdan shimol yo'nalishida 50 m ni tashkil etadi. Yodgorlik yuzasida faqat Jarqo'ton davri sopollari qayd etildi.

Xulosa va takliflar. 2015-yildan boshlab Termiz davlat universiteti va Chexiyaning Karlova universiteti o'rtasidagi xalqaro hamkorlik doirasida olib borilgan tizimli arxeologik tadqiqotlar natijasida, ayniqsa Poshxurt-Zarabog' hududida Sopolli madaniyatiga oid 3 ta yangi arxeologik yodgorlik manzilgohlari aniqlandi. Bobolangar, Tulkitepa,

Yo'ltepa yodgorliklarining aniqlanishi va o'rganilishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu yodgorliklar bronza davri oxiri va temir davri boshlanishi oralig'idagi murakkab davriy o'tish jarayonlari, demografik harakatlar, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va diniy-funeral amaliyotlarni o'rganishda muhim materiallar berdi. Tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan ilmiy hulosalar ilmiy ishlar, ilmiy maqolalar shakllanishi uchun asos bo'lib hizmat qilmoqda, hamda xalqaro jurnallarda nashr ettirilmoqda. O'zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasiga bag'ishlangan ilmiy yangiliklar Chexiyaning Studio Hercynia jurnalida bugungi kunga qadar 25 dan ortiq maqolalarida chop etildi.

ADABIYOTLAR

1. Хамидов О.А. Шимолий Бактриянинг Кучук I даврига оид янги ёдгорликлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация матни. – Тошкент, 2020.
2. Хамидов.О. Шимолий Бактриянинг сўнгги бронза даври ёдгорликлари // Хоразм Ма'mun akademiyasi axborotnomasi. 12/2021. 336-337.
3. Kysela. J., Augustinova.A., Kinaston. R. Preliminary Reports on the Excavations at Burgut Kurgan and Bobolangar in 2017 // Studia Hercynia. XXII/1. 2018. P. 163.
4. Augustinova.A., Stancho.L., Damashek.L., Mrva.M., Shaydullayev.Sh. Archaeological Survey of the Oases of Zarabag, Karabag and Kampyrtepa in the Piedmont of the Kugitang Mountains, South Uzbekistan – Preliminary Report for the Season 2016 // Studia Hercynia. XXI/1. Praga. 2017.
5. Stancho. L., Shaydullayev.Sh., Shaydullaeyev.A., Augustinova.A., Havlik. J., Cejnarova.P. Archaeological Survey in the eastern Kugitang Piedmonts (South Uzbekistan), Preliminary Report for Seasons 2016 and 2017 // Studia Hercynia XXI/2. Praga. 2017. P. 124.